



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 27-may, chorshanba,
49 (24.229)-son

O'zbek xalq
maqoli

Birliksiz
kuch
bo'lmas

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



DASTUR VA REJALAR IJROSI

*viloyat ijtimoiy-iqtisodiy
taraqqiyotining asosini tashkil etadi*

**26-may kuni xalq deputatlari
viloyat Kengashining o'ttizinchi
sessiyasi o'tkazildi.**
**Sessiya ishini Kengash raisi
Sh.Negmatov boshqardi.**

Kun tartibiga muvofiq, dastlab **O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti tashqi audit va baholashdan o'tkazilganligi yuzasidan axborot** ko'rib chiqildi.

Bu haqda Hisob palatasining viloyatdagi vakili A.Salomov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari O.Oqbo'tayev, viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i F.Boboyev ma'lumot berdi.

Qayd etilishicha, 2025-yil yakuni bilan viloyat yalpi hududiy mahsuloti 2024-yilga nisbatan 8 foizga o'sib, 121,5 trillion so'mni tashkil etgan. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi 34,0 trillion so'm, sanoat 20,8 trillion so'm, qurilish 7,6 trillion so'm, xizmat ko'rsatish sohasi 57 trillion so'm hamda sof soliqlar 2 trillion so'mni tashkil etgan. Mahalliy budjet daromadlari 2025-yilda 6 trillion 483 milliard so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 22 foizga oshgan. Hisobot yilidagi daromadlar 2024-yilga nisbatan bevosita soliqlar, jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 621,8 milliard so'm, bilvosita soliqlar 71,2 milliard so'm, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 272 milliard so'm, boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar bo'yicha 205,2 milliard so'mga oshgan. Shu bilan birga, 2025-yil davomida respublika budjetidan viloyat budjetiga 4 389,4 milliard so'm ajratilgan.

Viloyat mahalliy budjeti xarajatlari 2025-yilda oldingi davrga nisbatan 35,9 foizga o'sgan hamda hisobot davrida budjet xarajatlari ijrosi 10556,4 milliard so'mni tashkil qilgan.

Hisob palatasi tomonidan viloyat mahalliy budjetining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni tashqi audit va baholashdan o'tkazish natijalari bo'yicha bir qator tavsiya va ko'rsatmalar berilgan ham ta'kidlandi. Jumladan, budjet daromadlari qamrovi tahlil qilinganda, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish hamda soliq ma'murchiligini kuchaytirish orqali 338 milliard so'm qo'shimcha daromadlar tushirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan.

Mazkur masala muhokamasi chog'ida viloyat hokimi A.Boboyev iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idoralar Hisob palatasi tomonidan berilgan tavsiya va ko'rsatmalarni o'z vaqtida, sifatli bajarishi, o'tgan yil yo'l qo'yilgan kamchiliklar bu yil takrorlanmasligi zarurligini qayd etdi.

Shundan so'ng "**Davlat mulkini xususiy lashtirish to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining viloyatdagi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i A.Egamovning hisoboti tinglandi.

Hisobotda keltirilishicha, 2025-yil davomida viloyat bo'yicha 89 ta aktiv auktsion savdolariga chiqarilib, 485,5 milliard so'mga sotilgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga auktsion savdosida turgan aktivlar soni 41 tani (boshlang'ich narxi 153,6 milliard so'm) tashkil qilgan. Yilning birinchi choragida 17 ta aktiv 67,9 milliard so'm boshlang'ich narx bilan auktsion savdolariga chiqarilib, shu paytgacha 21 tasi 96,1 milliard so'mga sotilgan. Shuningdek, joriy yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 388,2 gektar yer uchastkalari (354,2 gektari sanoat zonalarida) 49,0 milliard so'mlik boshlang'ich qiymat bilan auktsion savdolariga chiqarilib, shu paytgacha 171,1 gektari (111,5 gektari sanoat zonalarida) 35,5 milliard so'mga sotilishi ta'minlangan.

— Davlatimiz rahbarining 2025-yil 21-apreldagi "2025-yil uchun xususiy lashtirish dasturi to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, viloyatimizdagi 10 ta jamiyatdagi davlat ulushlarini hamda 64 ta ko'chmas mulk obyektlarini savdoga chiqarish belgilangan, — dedi A.Egamov. — Mazkur aktivlarning 59 tasi 129,4 milliard so'm boshlang'ich narx bilan savdoga chiqarilib, 42 tasi 87 milliard so'mga sotilgan. 2 ta aktivni xususiy lashtirish jarayonlari vaqtincha to'xtatildi, 2 ta aktiv bo'yicha tijorat banklari tomonidan kredit ta'minoti sifatida taqiy qo'yilgan, 3 ta stomatologiya poliklinikalarining tashkiliy-huquqiy shakli belgilangan tartibda MChJga aylantirilmoqda. Ayni paytda yangi xususiy lashtirish dasturi bo'yicha viloyatdagi 63 ta davlat mulk obyektlari ommaviy savdolariga chiqarish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, yil yakuniga qadar 800 gektar noqishloq xo'jalik yer uchastkalarini savdoga chiqarish va 140 milliard so'mga sotish rejalashtirilgan.

Sessiyada **Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ning viloyatdagi mintaqaviy vakili O. Toshniyozov 2025-yilda viloyatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida olib borilgan ishlar haqida axborot berdi.**

O.Toshniyozovning ma'lum qilishicha, 2025-yil davomida mintaqaviy vakilga 586 ta murojaat kelib tushgan va 2024-yilga nisbatan soni 254 taga ko'paygan. Murojaatlarning 52 tasi ijobiy hal qilingan, 146 ta murojaat bo'yicha huquqiy tushuntirish berilgan, 244 ta murojaat taalluqliligi va 8 ta murojaat hududiylik bo'yicha tegishli organlarga yuborilgan. Hududlar kesimida eng ko'p murojaat Samarqand shahar (110 ta), Past Darg'om (55 ta) va Paxtachi (25 ta) tumanlaridan kelib tushgan.

Murojaatlarda asosan mehnat munosabatlari, ish haqi va kompensatsiya to'lovlari undirish, aliment to'lovlari, ijtimoiy yordam, pensiya va nafaqa ta'minoti, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, uy-joy, yer, komunal xizmatlar, sud hujjatlari ijrosi, tergov va jazoni ijro etish jarayonlari bilan bog'liq masalalar ko'tarilgan.

Deputatlar axborot yuzasidan o'z fikrlarini bildirib, uni ma'qulladilar.

Shundan keyin sessiyada viloyatda 2026-yilda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini kafolatli yetkazib berish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash, o'z boshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish, Bulung'ur, Jomboy, Oqdaryo, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Narpay, Payariq, Past Darg'om, Paxtachi, Samarqand, Nurobod, Urgut, Toyloq tumanlaridagi shahar, shaharcha va qishloqlar (ma'muriy-hududiy birliklar) chegaralarini belgilash, viloyat mahalliy budjetining 2026-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'laridan foydalanish, 2026-2028-yillarda yer uchastkalarining suv ta'minotini yaxshilash, yangidan o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritishga qaratilgan dasturni tasdiqlash to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi.

Shuningdek, viloyat hokimining 2026-yil 1-maydagi "Samarqand viloyati hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va hokimlik boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Yangilangan tuzilmada viloyat hokimining rasmiy delegatsiyalarning tashrihi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi ham kiritilgan.

Sessiyada "Toshkent — Samarqand pullik avtomobil yo'lini qurish" hamda "Taxtadoracha dovonida yangi pullik tunnel qurish" loyiha konsepsiyalari ham ko'rib chiqilib, tasdiqlandi.

25-may kuni viloyatimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Yuksak ma'rifatli avlod — Uchinchi Renessans poydevori!" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari bo'lib o'tdi.

Samarqand shahridagi 55-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan tadbirda viloyat hokimi Adiz Boboyev ishtirok etdi. Viloyat rahbari Prezidentimizning bitiruvchilarga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

— Barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi rayotgan "So'nggi qo'ng'iroq" sadolari nafaqat bir qadrdon maskan bilan xayrlashuv, balki Yangi O'zbekistonning porloq kelajagi sari qo'yilayotgan navbatdagi ulkan va zafarli qadamning ramzidir, — dedi viloyat hokimi. — So'nggi yillarda davlatimiz rahbari



Bitiruvchilar mustaqil hayotga kuzatildi

rahnamoligida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar o'z samarasini bermoqda. Joriy o'quv yilida viloyatimizdagi 1352 ta umumiy o'rta ta'lim maktabini 52 mingdan ortiq o'quvchi

yuqori bilim va katta umidlar bilan bitirib, mustaqil hayotga qadam qo'ymoqda. E'tiborlisi, maktablardagi ta'lim sifatining oshgani bois bu yil bitiruvchilarning 1750 nafari oltin va 277 nafari kumush medal bilan o'qishni tugatmoqda.

Darhaqiqat, viloyatimizda 1549 nafar bitiruvchi o'z bilimini xalqaro va milliy darajada isbotlab, sertifikatlariga ega bo'ldi.

Shuningdek, 445 nafar bitiruvchi muddatdan oldin dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi. Masalan, Urgut tumanidagi 152-maktab o'quvchisi Shohjahon Meliqulov AQShning Texas universitetiga 1 million dollarlik grant yutib, Samarqand shahar Prezident

maktabi o'quvchisi Shaxzod Azamatov Nyu-York universitetiga 282 ming dollarlik grant bilan muddatdan oldin talabalikka qabul qilindi.

Tadbirda o'qish va jamoat ishlarida alohida faollik ko'rsatgan o'quvchilar, maktab bilan yaqindan hamkorlik qilgan ota-onalar, fidoyi o'qituvchilarga viloyat hokimining tashakkurnomalari topshirildi.

Bayram tadbirida viloyatimiz nomini sport maydonlarida munosib tanitayotgan yoshlar ham e'tirof etildi. Sohaning eng yaxshi vakillari "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" ko'krak nishoni, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Umida QURBONOVA.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-maydagi qarori asosida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand oilalarga yordam berish va og'ir bemorlarni davolash ishlari yangi bosqichga olib chiqildi. Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan viloyatimizda keng ko'lami muruvvat tadbirlari amalga oshirilmoqda. Viloyat hokimligi, "Vaqt" xayriya jamoat fondi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmalari hamda jamoatchilik vakillari birgalikda xayrli ishlarga bel bog'lagan.

Mahallalarda maxsus ishchi guruhlar tomonidan ehtiyojmand oilalar holati o'rganilib, ularga oziq-ovqat, moddiy yordam, dori-darmon va ma'naviy ko'mak yetkazilmoqda. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar va kam ta'minlangan aholiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ishlarga tadbirkorlar va homiylar ham faol jalb etilgan jamiyatdagi mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlamoqda.

Viloyat sog'liqni saqlash tizimi zimmasiga og'ir xastalikka chalingan bemorlar, onkogematologik kasallar hamda organ transplantatsiyasiga muhtoj aholini davolash bo'yicha muhim vazifalar yuklatildi. O'tkazilgan tibbiy ko'riklar natijasida viloyat bo'yicha jami 1026 nafar davolanishga muhtoj bemor aniqlandi. Rejaga ko'ra, og'ir xastalikka chalingan 764 nafar bolaning 200 nafariga maxsus davolanish vaucherlari topshirildi. Ayni paytda ularni ixtisoslashtirilgan shifoxonalarga joylashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, 6 nafar og'ir bemor



Mehr va saxovat tadbirlari

bola shifoxonaga yotqizilib, ularning 3 nafarida murakkab jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Shuningdek, onkogologik kasallik bilan ro'yxatda turgan 250 nafar bemordan 60 nafariga vaucherlar berildi va 20 nafari davolash muassasalariga joylashtirildi. Gematologik va onkogematologik kasallikka chalingan 14 nafar bemor to'liq vaucher bilan ta'minlanib, ularning 3 nafari stasionar davolanmoqda. Qarorga asosan, jami 39 nafar bemorda jigar va buyrak transplantatsiyasi amalga oshirishi belgilangan. Hozircha 6 nafar bemorga vaucherlar taqdim etildi.

Xayr-saxovat tadbirlari shunchaki quruq raqamlar yoki hisobotlardan iborat emas, uning zamirida insonlarning taqdiri, oilalarning quvonchi va ko'z yoshlari mujassamdir. Ana shunday umidbaxsh va hayajonli voqealardan biri Samarqand shahridagi Motrid mahallasida bo'ldi. Maxsus ishchi guruh a'zolari ushbu mahallada istiqomat qiluvchi Farxunda

Hamidovning xonadoniga bordi.

— Qizim 5 yoshda, — deydi Farxunda Hamidova. — U tug'ma yurak nuqsoni xastaligi bilan dunyoga kelgan edi. Shifokorlar bolamning sog'lig'ini tiklash, tengdoshlaridek sog'lom o'sib-unishi uchun tez fursatda murakkab va nozik kardioxirurgik amaliyot o'tkazish zarurligini bildirishgan. Biroq ushbu operatsiya uchun talab etiladigan 30 million so'm atrofidagi mablag' bizda yo'q edi.

Mahalla faollari va shifokorlarning tavsiyiga ko'ra, mas'ullar tomonidan ushbu oilaga davlat tomonidan ajratilgan bepul davolanish vaucheri topshirildi. Shuningdek, Qurbon hayiti oldidan viloyatdagi masjidlar, ziyoratgohlar va qabristonlarda obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Amalga oshirilayotgan bu xayrli ishlar inson qadriini ulug'lash, mehr-oqibatni kuchaytirish va xalq farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

To'liq SIDDIQOV.

Iqtisodiy barqarorlik va iste'molchilar huquqlarining raqamli kafolati

Oliy Majlis Senatining navbatdagi yalpi majlisida xalqimiz hayoti uchun juda muhim bo'lgan bir qator qonunlarni ko'rib chiqdik va ma'qulladik. Shulardan biri "Raqamli markirovkalash tizimining samaradorligi oshirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun.

Ushbu qonun ichki bozorimizni soxta, sifatsiz va odamlar sog'lig'i uchun zararli bo'lgan mahsulotlardan tozalashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda uzoq yillardan beri katta muammo bo'lib kelayotgan yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishda ham qonunning o'rni juda katta bo'ladi. Biz bu qonunni muhokama qilayotganimizda uning ham oddiy odamlarga, ham tadbirkorlarga, ham davlatimizga qanday foyda keltirishini chuqur tahlil qildik va har bir bandni sinchiklab o'rganib chiqdik.

Yurtimizda biznes vakillarini moliyaviy jihatdan rag'batlantirish, ularga erkin ishlash uchun keng sharoitlar yaratish va eng muhimi, faoliyatiga asossiz aralashishlar hamda tekshiruvlarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu ishlarning barchasi iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun juda zarur. Biroq bozor iqtisodiyoti to'g'ri va halol rivojlanishi uchun hamma bir xil sharoitda ishlashi kerak. Sog'lom bozor muhitini o'z vaqtida soliqlarini to'lab, halol mehnat qilayotgan tadbirkorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda ichki bozorimizda ayrim turdagi mahsulotlarni noqonuniy ravishda ishlab chiqarish va ularni yashirincha sotish holatlari uchrayotgan. Bu esa halol ishlayotgan tadbirkorlarimiz-

ga juda katta zarar yetkazmoqda. Chunki noqonuniy mahsulot ishlab chiqaruvchilar soliq to'lamaydi va shu sababli o'z mahsulotlarini arzonroq sotadi. Natijada halol tadbirkorlar bozorda ular bilan raqobat qila olmay qiyinaladi.

Mana shunday muammolarning oldini olish uchun davlatimiz tomonidan mahsulotlarni maxsus identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash tizimi joriy etilgan edi. Bu tizim har bir mahsulotning haqiqiy ekanligini ko'rsatib turadi. Lekin ushbu tizimning yanada yaxshi va samarali ishlashi uchun qonunchiligimizdagi ayrim kamchiliklarni to'ldirish zarurati paydo bo'ldi. Yangi qabul qilinayotgan qonun aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Ta'kidlashim kerak, Senat majlisida ushbu qonunni muhokama qilayotganimizda, eng avvalo, oddiy odamlarning, ya'ni iste'molchilarning manfaatlarini o'yladik. Chunki tovarlarni raqamli markirovkalash tizimi birinchi navbatda fuqarolarimizni sifatsiz, soxta va qalbaki mahsulotlarni sotib olishdan asrash uchun yaratilgan. Hech kim o'z puliga sifatsiz yoki soxta mahsulot sotib olishni xohlamaydi. Ayniqsa, ba'zi mahsulotlar borki, ularning soxta bo'lishi inson hayoti va sog'lig'i uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf soladi.



Mahsulotda raqamli markirovka kodining bo'lishi nimani anglatadi? Bu degani, o'sha mahsulot zavodda ishlab chiqarilgan daqiqasidan boshlab, to do'konga yetib kelguncha bo'lgan barcha yo'lni davlat nazorat qilib turadi. Bu tizim korxonalarini qonunlarga va sifat standartlariga qat'iy rioya qilishga majbur qiladi. Istagan odam qo'l telefoni orqali mahsulotning kodini skanerlab, uning haqiqiy yoki soxta ekanligini osongina bilib olishi mumkin bo'ladi.

Yangi qoidalariga ko'ra, agar biror tadbirkor mahsulotlarni majburiy markirovkalash qoidalarini buzgan bo'lsa, soliq idoralari unga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri jarima qo'llamaydi yoki borib tekshirish boshlamaydi. Nazorat ishlari tizimli ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi, elektron tizim orqali tadbirkor qoidabuzarlik aniqlangani haqida rasmiy ogohlantirish yuboriladi. Bu tadbirkor o'z xatosini tushunib, uni to'g'rilashi uchun berilgan imkoniyatdir.

Ikkinchidan, agar tadbirkor birinchi ogohlantirishdan keyin ham xatosini

to'g'rilamasa va yana shunday huquqbuzarlikka yo'l qo'ysa, unga ikkinchi marta rasmiy ogohlantirish xati yuboriladi. Agar shundan keyin ham tadbirkor tegishli xulosa chiqarmasa va kamchiliklarni bartaraf etmasa, unga nisbatan masofaviy soliq tekshiruvni tayinlanadi.

Shu o'rinda aytib o'tish o'rinni, masofaviy soliq tekshiruvni - bu soliq xodimining tadbirkorning ishonasi yoki do'koniga bormasdan, kompyuter orqali, ya'ni elektron tizim yordamida o'tkazadigan tekshiruvdir. Masofaviy soliq tekshiruvini o'tkazish muddati ham aniq - 5 kun etib belgilandi.

Soliqchilar tekshiruvni yillab yoki oyab cho'zib yura olmaydilar. Bu esa biznesning to'xtab qolmasligini ta'minlaydi.

Tekshiruv yakunida tuziladigan hujjat, ya'ni

dalolatnoma faqat elektron hujjat ko'rinishida rasmiylashtiriladi va tadbirkorning shaxsi kabinetiga yuboriladi. Bu yerda soliqchi bilan tadbirkor yuzma-yuz ko'rishmaydi. Bu esa turli xil kelishmovchiliklar va korrupsiya holatlarining oldini oladi.

Senat yalpi majlisidagi muhokamalarda biz yashirin iqtisodiyotning salbiy oqibatlarini haqida juda ko'p gapirdik. Yashirin iqtisodiyot - bu faqat davlatga to'lanmay qolgan soliqlar degani emas. Bu muammo juda chuqur ildizlarga ega. Yashirin iqtisodiyot tufayli sifatsiz mahsulot iste'mol qilib, sog'lig'ini yo'qotayotgan oddiy odamlar jabr ko'rmoqda. Halol ishlab, bozorda soxta mahsulotlar ko'pligi sababli kasodga uchrayotgan yaxshi tadbirkorlarimiz zarar ko'rmoqda.

Shuningdek, yashirin iqtisodiyot sababli davlat budgetiga tushmay qolayotgan mablag'lar tufayli biz yangi maktablar, zamonaviy shifoxonalar va tekis yo'llarni qurishda qiyinchiliklarga duch kelyapmiz. Yangi qonunning hayotimizga tatbiq etilishi mana shunday muammolarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

"Anora": yolg'izlik va bemorlikka malham

▶ Ijtimoiy himoya



Ayni kuch-quvvatga to'lib, faol mehnat qilib yurgan Nargiza 45 yoshida insultga chalilib, harakatsiz qoldi, hatto gapirolmasligidan tushkunlikka tushdi. Davolandi, shifokorlarning aytganini qildi. Mahallasining ijtimoiy xodimi shu kabi kasalliklarni parvarishlash xizmati tashkil etilganini aytib, uni "Anora" ko'p tarmoqli ijtimoiy-tibbiy parvarish markaziga olib keldi. Nargiza bu maskanga qatnayotganiga besh oydan oshdi. Jismoniy va ruhiy holatni tiklash bo'yicha zamonaviy dasturlar yordamida sog'ligini tiklamoqda. Hozir gapira boshladi, qiynalib bo'lsa-da, o'zi yurib, markazga kelmoqda.

Yaqinda Samarqand shahridagi "Anora" ko'p tarmoqli ijtimoiy-tibbiy parvarish markazida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Unda jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

- "Anora" ko'p tarmoqli ijtimoiy-tibbiy parvarish markazi Germaniya davlati hamkorligida tashkil etilgan ijtimoiy loyiha bo'lib, doimiy ravishda parvarishga muhtoj insonlarning hayot sifatini yaxshilash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, - deydi markaz rahbari Azamat Egamberdiyev uning faoliyati bilan ishtirokchilarni tanishtirar ekan. - Markazimiz o'tgan yildan ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan hamkorlikda ishlaymoqda. 300 nafarga yaqin samarqandliklarga patronaj qarov, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatamiz. Markazda hozirgi paytda 40 nafarga yaqin malakali assistentlar xizmat olib boradi. Bu yerda bemorning jismoniy va psixosotsional holatini qayta tiklash, kundalik hayotda o'ziga ishonch hosil qilish ko'nikmasini shakllantirishga intilamiz. Markaz yaqin kunlarda ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatishni ham boshlaydi.

Germaniyadan kelgan ekspertlar, yuridik fanlari doktori Gerald Zander va nemis tili bo'yicha ekspert Xans-Yoxan Rayx markazda ekspert sifatida olib borayotgan ishlari haqida to'xtalib o'tishdi.

- Taqdir taqozosiga ko'ra yolg'iz yashayman, - deydi Samarqand shahri-lik 85 yoshli Raisa Kononova. - Bu yerga har kuni kelib, mashg'ulotlarida qatnashaman, shifokor va trenerlar yordamida jismoniy mashqlar bajaraman. Bizning yoshimizda o'zimizni eplab yurish, kunlik maishiy ishlarimizni amallab yurish uchun ham katta iroda va harakat kerak. Bu yerda mana shu kuchni olamiz, o'z ustimizda ishlaymiz, odamlar bilan muomalada bo'lamiz.

"Anora" ko'p tarmoqli ijtimoiy-tibbiy parvarish markazi aholiga bir necha yo'nalishda yordam ko'rsatadi. Xususan, yolg'iz qariyalarga uyda yordam ko'rsatish, (kundalik ro'zg'or ishlari), tibbiy-sog'lomlashtirish, kunduzgi parvarish, ya'ni reabilitatsion dasturlar, ruhiy-ijtimoiy ko'mak amalga oshiriladi. Imkoniyati cheklangan yaqinlariga qaraydigan qarindoshlar uchun o'quv dasturlari, ijtimoiy-tibbiy yordamning zamonaviy usullari, bu bo'yicha tavsiya va tahliliy materiallar tayyorlash uchun ilmiy izlanishlar olib borish ham yo'lga qo'yilgan. Markaz xizmatlari kam ta'minlangan oila a'zolari uchun ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi orqali bepul amalga oshiriladi. Shuningdek, bu yerda pullik xizmat ko'rsatish imkoniyati ham mavjud.

Gulruh MO'MINOVA.

So'nggi yillarda O'zbekistonda, xususan, viloyatimizda qurilish sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Yangi turarjoy massivlari, zamonaviy ko'p qavatli uylar va infratuzilma obyektlarining barpo etilishi aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq sohadagi o'sish sur'atlari bilan bir qatorda tizimli muammolar, xususan, soliq intizomining buzilishi holatlari ham ko'payib bormoqda.

O'tkazilgan tahlillar qurilish korxonalarini faoliyatida jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Ko'p qavatli uy-joy quruvchilari 142 ta korxonada faoliyati o'rganilib, ularning 50 tasida 2023-2025-yillar davomida byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan 294 milliard so'mlik soliqlar yashirilgani aniqlandi. Bu raqam nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Avvalo, yashirilgan soliqlar tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosiy ulush qo'shilgan qiymat solig'iga (170 milliard so'm) to'g'ri keladi. Shuningdek, 60 milliard so'm foyda solig'i, 24 milliard so'm ish haqidagi ushlanadigan daromad solig'i hamda qurilish obyektlarini o'z vaqtida topshirmaslik natijasida 26 milliard so'm mol-mulk va yer solig'i qo'shimcha hisoblangan. Bu holatlar qurilish sohasida moliyaviy shaffoflik yetarli emasligini ko'rsatadi.

Birinchi muhim muammo - ish haqi jamg'ar masini sun'iy ravishda kamaytirish orqali soliqdan qochish holatlaridir. Tahlillar 41 ta korxonada aynan shu sxema qo'llanilganini ko'rsatdi. Natijada 48 milliard so'm miqdorida daromad solig'i va ijtimoiy soliqlar to'lanmagan. Qurilish sohasida belgilangan minimal talablarga ko'ra, bir shtatda ishlovchi shaxsga eng kam ish haqining to'rt baravaridan kam mablag' yozilishi mumkin emas. Ammo amaliyotda bu talablarga rioya etilmagan.

Bu kabi holatlar nafaqat davlat budgetiga, balki ishchilarning ijtimoiy himoyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki rasmiy ravishda kam ish haqi ko'rsatilishi kelajakda pensiya ta'minoti va boshqa ijtimoiy kafolatlarning kamayishiga olib keladi.

Ikkinchi yirik muammo - qurilgan uy-joylarning real sotuvi bilan hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlar o'rtasidagi tafavut. 29 ta korxonada tomonidan 597 ming kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirilgan bo'lsa, shundan 279 ming kvadrat metri rasmiy ravishda sotilmagan, deb ko'rsatilgan. Aslida esa bu uylar amalda xaridorlarga sotilgan va to'lovlari ham olingan. Bu orqali quruvchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan

Samarqandda qurilish bozori:

soliq intizomi va tizimli muammolar tahlili



halol ishlayotgan

korxonalar soliq yukini to'liq ko'tarishga majbur bo'ladi.

Uchinchi muammo - qurilish muddatlariga rioya etilmasligi bilan bog'liq. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, qurilish 24 oy ichida yakunlanmasa, mol-mulk va yer solig'i ikki baravar stavkada hisoblanishi lozim. Biroq 36 ta korxonada ushbu talab bajarilmagan va 16,4 milliard so'm soliq hisoblanmay qolgan.

Bu holat shaharsozlik siyosatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Chala qurilish obyektlari shahar ko'rinishiga salbiy ta'sir o'tkazadi, infratuzilma rejalashtirilishini izdan chiqaradi va aholi uchun qo'shimcha noqulayliklar tug'diradi.

To'rtinchi jihat, uy-joylarning sun'iy ravishda past narxlarda rasmiylashtirilishi. Tahlillarga ko'ra, rasmiylashtirilgan uy-joylarning o'rtacha narxi bozor bahosidan ancha past ko'rsatilgan. Masalan, shahar hududida 1 kvadrat metr uy-joy o'rtacha 4 million so'mdan rasmiylashtirilgan bo'lsa, tumanlarda bu raqam 2 million so'mga ham bormagan.

Oqibatda 24 ta korxonada tomonidan 38 milliard so'm QQS to'lanmagan. Bu holat soliq bazasini sun'iy ravishda kamaytirish orqali amalga oshirilgan bo'lib, davlat budgetiga jiddiy zarar yetkazgan.

Beshinchidan, hujjatsiz tovar va xizmatlardan foydalanish holatlari qayd etildi. Ayrim korxonalar qurilish materiallarini rasmiy kirim qilmasdan ishlatgan yoki hujjatlarda ko'rsatilgan materiallar amalda ishlatilmagan. Bu esa soliq hisob-kitoblarida buzilishlarga olib kelgan va 30 milliard so'm QQS hisoblanmay qolgan.

Oltinchi jihat - rentabellikni sun'iy pasaytirish orqali foyda solig'idan qochishdir. 30 ta korxonada xarajatlar asossiz ravishda oshirib ko'rsatilgan va natijada 11,5 milliard so'm foyda solig'i yashirilgan. Shuningdek, transport xizmatlaridan hujjatsiz foydalanish holatlari ham aniqlangan bo'lib, qo'shimcha ravishda 18,8 milliard so'm

qochib, mablag'larni o'z aylanmasiga yo'naltirgan. Oqibatda 97,5 milliard so'm qo'shimcha qiymat solig'i budjetga tushmay qolgan. Bu holat bozorda noqonuniy raqobatni ham keltirib chiqaradi, chunki

soliq undirish imkoniyati mavjud.

Yana bir e'tiborli holat - ayrim qurilish kompaniyalarining boshqa hududlarda ro'yxatdan o'tib, Samarqandda faoliyat yuritishidir. Bu esa soliq tekshiruvlaridan qochish va nazoratni susaytirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar qurilish sohasidagi muammolar tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Bu yerda faqat alohida korxonalar emas, balki umumiy boshqaruv va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlar belgilab berilgan. Jumladan, aniqlangan 294 milliard so'mlik soliq qarzdorligini undirish, hududlarda soliq qonunchiligiga rioya etilishini kuchaytirish, nazorat organlari xodimlarini bodikameralar bilan ta'minlash va qurilish obyektlarida onlayn kuzatuv tizimlarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan.

Ayniqsa, qurilish obyektlariga kameralar o'rnatish tashabbusi shaffoflikni ta'minlashda muhim qadam bo'lishi mumkin. Bu orqali ishchilar soni, ish jarayonlari va qurilish bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, viloyat qurilish sohasida aniqlangan soliq qonunbuzarliklari nafaqat moliyaviy intizom muammosi, balki iqtisodiy adolat va bozor shaffofligi masalasi ekanini ko'rsatadi. Agar mazkur muammolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bu kelajakda yanada katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu bois davlat organlari, mahalliy hokimliklar va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, raqamli nazorat tizimlarini joriy etish va qonun ustuvorligini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kamolbek NORBEKOV,
viloyat soliq boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Tabiatni asrash – burchimiz

Tabiat — inson hayotining moddiy va ma'naviy manbai hisoblanib, o'zaro uyg'unlikda taraqqiy etadi. Agar tabiatga beparvo munosabatda bo'lsak, bu ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi va unga bo'lgan munosabatimiz uni qay darajada qadrlashimizni ko'rsatadi.

Afsuski, bugungi kunda ba'zilar tabiatdan faqat o'z manfaatini uchun foydalanmoqda. Bu esa yashil hududlarning qisqarishiga, suv havzalarining ifloslanishiga va havoga zararli gazlar chiqarilishiga olib kelmoqda. Natijada ekologik muvozanat buzilib, bu nafaqat tabiatga, balki insoniyat salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq ona tabiat ham bu beparvolikka qurg'oqchilik, havoni ifloslanishi va turli tabiiy ofatlar bilan javob bermokda.

Ammo, atrof-muhitni asrashni o'z burchi deb biluvchilar ham oramizda talaygina. Ular tabiat musaffoligini ta'minlash, ko'chat ekish ishlarida faol ishtirok etmoqda. Yosh avlod tarbiyasida mehr-muhabbat, saxovat, isrofgarchilikka qarshi munosabat va ekologik madaniyatni shakllantirish juda muhimdir.

Bugun yurtimizda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida millionlab ko'chatlar ekilib, yashil hududlar kengaytirilmoqda. Bu kabi xayriy ishlar xalqimiz birdamligini, tabiatga bo'lgan e'tiborini yanada oshirayotgani qvonar.

Biroq ayrim joylarda insonlarning tabiatga nisbatan befarq munosabati hali-hamon uchrab turibdi. Jumladan, Samarqand shahridagi Panjakent ko'chasidagi yo'l kesishmasi yaqinida joylashgan avtobus bekati o'rnatilgan chiqindi qutilari to'lib ketgan va vaqtida olib ketilmayapti. Shaharning boshqa markaziy ko'chalari, Qorasuv, So'lim, Sug'diyona, Sartepa massivlarida ham bunday manzarani ko'rish mumkin. Ayniqsa, ko'p qavatli uylar va bozorlarda ham chiqindixonalar atrofi maishiy va qurilish chiqindilariga to'lib ketgan. Ayrim fuqarolarning ushbu hududga katta hajmdagi chiqindilarni tashlab ketishi madaniyat va mas'uliyat yetishmasligidan dalolat beradi.

Biz yashab turgan muhit o'z uyimiz, o'z madaniyatimiz emasmi? Tabiat nafaqat tiriklik manbai, balki insonga ruhiy orom va hayot zavqini bag'ishlaydigan beqiyos ne'mat. Hatto inson bemor paytida ham tabiat unga tasalli va kuch bag'ishlaydi.

Men ushbu maqola orqali kimnidir tanqid qilishni emas, balki jamiyatimizdagi befarqlikka e'tibor qaratishni istadim. Chunki tabiatga bo'lgan munosabat kelajakka bo'lgan munosabatdir. Uni asrash esa har birimizning insoniy va fuqarolik burchimiz.

Gulmira KELDIYOROVA.

Или йўли машаққатли, ammo шарафлидир. Ўзини илмга бағишлаган инсонларнинг таржимаи ҳолига назар солар эканмиз, уларнинг қалбидаги билимга бўлган иштиёқ ҳали болалик йиллариданоқ куртак ёзганига гувоҳ бўламиз. Ана шундай фидойи, ўз ҳаётини илм-фан ва таълим ривожига бахш этган устозлардан бири Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети сунъий интеллект ва рақамли технологиялар факультетида қарийб 40 йилдан ортқ самарали фаолият юритиб келатган олим Акрам Аъзамович Шахидидир.

Домла 1936 йил Самарқанд шаҳрида таваллуд топди. У республикада хизмат кўрсатган ўқитувчи, халқ таълими аълочили Аъзам Шахиди оиласида вояга

Умрининг мазмуни – илм

етди. Мактабни аъло баҳолар билан битириб, Ўзбекистон давлат университети (ҳозирги Самарқанд давлат университети)нинг физика-математика факультетига ўқишга кирди. Ўқишни муваффақиятли тугатган ёш мутахассис илк иш фаолиятини Самарқанд кооператив институтида (ҳозирги Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти) ассистентликдан бошлади.

Бир муддат Тожикистон фанлар академиясининг физика-математика бўлимида стажёр-тадқиқотчилик фаолиятини олиб борди. Кейинчалик солиқ иттифоқ теҳнар академиясининг ҳисоблаш марказида илмий сафарда бўлди, аспирантурада ўқи-

ди. 1969 йилда "Иқтисодий тадқиқотларнинг математик усуллари" мавзусидаги номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди. Аспирантурада ўқиш даврида улкан салоҳиятга эга олимлар даврасида бўлгани, илмий семинарларда маърузалар ўқигани олимнинг илмий тадқиқотлари учун мактаб вазирасини ўтади.

А.Шахидининг илмий изланишлари ўша пайтда эндигина шаклланиб келатган янги илмий йўналишга мансуб бўлиб, долзарблиги билан бир қаторда ўта мураккаб ва катта меҳнатни талаб қиларди.

Илмий даражага эришгач, А.Шахиди Тожикистон ФАнинг иқтисодиёт институтида

катта илмий ходим бўлиб ишлади. 1970 йилдан эътиборан Самарқанд давлат университетининг дифференциал тенгламалар кафедрасида меҳнат фаолиятини давом эттирди. Билими ва меҳнатсеварлиги эътиборга олиниб, уни университетда янги ташкил этилган ҳисоблаш математика кафедрасига мудир этиб тайинлашди. Кўп ўтмай, ушбу кафедра асосида амалий математика факультети очилди. Ўша даврда А.Шахиди амалий математика ҳамда механика-математика факультетлари талабаларига янги фанлардан сабоқ берди. Ўшанда ҳисоблаш техникаси ва ҳисоблаш математикасининг гуржираб ривожланиш даври эди. Бу даврда А.Ша-



хидига нафақат илмий-педагогик, балки катта ташкилотчилик ишларини олиб боришга ҳам тўғри келди. Домла университетда биринчи ҳисоблаш марказини очди ва унинг фаолиятини йўлга қўйишда бош-қош бўлди. А.Шахиди турмуш ўртоғи билан ажойиб фарзандларни

Ўнимиздаги одамлар

тарбиялади, қатор неваро-ю эвараларни камолга етказмоқда. Фарзандларидан бири ота касбини қанлади ва дунёнинг нуфузли университетларидан бирида профессор.

Одамлар орасида хурмат-эътиборга сазовор устознинг баракали меҳнати бугун ҳам кўпчилик ҳамкасблар, шоғирларга ибрат бўлмоқда.

Акрам Шахиди бугун кўп-қўш 90 ёшни қанлади ва дунёнинг барча дўстлари, ҳамкасблари, шоғирлари номидан ушбу табаррук айём билан қўтлаб, сиҳат-саломатлик тилаймиз!

Бахтиёр ХҲҲАЕВОВ, Самарқанд давлат университети фахрийлар кенгаши раиси
Ўринбосари, профессор. Сайфиддин АМРИДИНОВ, доцент.

Davlat ijrochilari ish yurituvda bo'lgan ijro hujjatlari bo'yicha aliment to'lovlarini ixtiyoriy ravishda to'layotgan jismoniy shaxslar muayyan davr uchun alimentni oldindan to'lash yoki aliment oluvchi bilan kelishilgan holda aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzishga haqli.

Alimentni oldindan to'lash mumkin

Davlat ijrochisi ish yurituvda bo'lgan ijro hujjati bo'yicha qarzdor tomonidan undiruvchiga alimentlarni oldindan to'lash hisobiga ko'chmas yoki ko'char mulk yoxud boshqa qimmatli ashyo taqdim etilishi mumkin.

Alimentlar summasini oldindan to'lash yoki alimentlar to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov taqdim etish faqat qarzdorning aliment to'lovlaridan qarzdorligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Alimentlarni oldindan to'lash vaqtida agar bolalar voyaga yetguniga qadar bo'lgan davr 5 yildan kam bo'lsa, alimentlarni oldindan to'lash qolgan davr uchun amalga oshiriladi.

Sud ajrimiga asosan oldindan to'lanishi shart bo'lgan

alimentlarning to'liq miqdorini to'lash, shuningdek, alimentlarni oldindan to'lash hisobiga undiruvchiga topshirish shart bo'lgan mol-mulkni topshirish o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatda amalga oshiriladi. Oldindan to'lash belgilangan alimentlar summasini hisoblashda, kelgusi davrlar uchun to'lanadigan alimentlar summasiga, to'lov vaqtidagi har yilgi alimentlar summasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalash stavkasiga kapitalizatsiya koefitsienti qo'llaniladi.

M.QURBONOV, Samarqand shahar 1-son FHDY bo'limi birinchi toifali inspektori.



Protez va reabilitatsiya vositalarini olish tartibi soddalashtirildi

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan va ko'makka muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda bir qator huquqiy me'yorlar bilan protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlashning yangi tartibi joriy etildi. Mazkur tizimning asosiy maqsadi aholiga qulaylik yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarni kamaytirish va muhtoj shaxslarni zamonaviy texnik vositalar bilan tezkor ta'minlashdan iborat.

Xo'sh, bu vositalarga ehtiyoji bo'lgan insonlar qaysi tashkilotga murojaat qilishi kerak, uning tartiblari qanday?

Endilikda muhtoj fuqarolar protez-ortopediya moslamasi yoki reabilitatsiya texnik vositasini olish uchun yashash hududidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga murojaat qilishi lozim.

Murojaat jarayoni quyidagidek bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchidan, fuqaroning ehtiyoji o'rganiladi, tibbiy xulosa va tavsiyalar ko'rib chiqiladi, shundan so'ng elektron tizim orqali malumotlar kiritiladi. Ushbu harakatlardan so'ng fuqaroga vaucher rasmiylashtiriladi.

Shundan so'ng fuqaro vaucher asosida belgilangan tashkilotdan o'z ehtiyojiga mos protez-ortopediya moslamasi yoki reabilitatsiya texnik vositasini oladi.

ULARGA QANDAY VOSITALAR BERILADI?

Ehtiyojiga ko'ra, nogironlik aravachalari, eshitish uskunalarini, qo'ltiqtaqoq va yurish moslamalari, protez oyoq-qo'llar, ortopedik poyabzal va boshqa reabilitatsiya texnik vositalari beriladi.

Eng muhimini, har bir vosita fuqaroning individual ehtiyojidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

YANGI TIZIMNING AFZALLIKLARI

Yangi tartib orqali xizmat ko'rsatish jarayoni soddalashtirildi, qo'g'ozbozlik kamaytirildi, inson omili qisqartirildi, murojaatlarni ko'rib chiqish tezlashtirildi hamda shaffoflik ta'minlandi.

Ubaydulla ORTIQOV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi bosh yuriskonsult.

IYUN OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-IYUN

To'liqin ESHBEK - 1963-yilda Ishtixon tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi a'zosi. Adabiyot sohasida Usmon Nosir mukofoti laureati, jurnalistika sohasida "Oltin qalam" Milliy mukofoti sovrindori.
Xudoyberdi HAQBERDIYEV - 1949-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. Kulol. O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi.
Ahmadjon SOLEYEV - 1951-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Fizika-

matematika fanlari doktori.

2-IYUN

Abdurauf BOLTAYEV - (1909-1974) Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

3-IYUN

Emmanuel KALANTAROV - (1932-1984) Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq rassomi.

Bozorboy O'RINBOYEV - (1936-2014). Jomboy tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

QO'SHMA UMUMIY YIG'ILISH O'TKAZILADI!

Payariq tumani hokimligi hamda "Payariq dehqon bozori" MCHJ, "Chelak dehqon bozori" MCHJ, "So'zangaron savdo kompleksi" MCHJ, "Nakurt dehqon bozori" MCHJ kuzatuv kengashlarining qo'shma umumiy yig'ilishi 2026-yil 1-iyun kuni soat 15:00 da Payariq tumani hokimligi majlislar zalida o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

1. Payariq tumani hududida faoliyat yuritayotgan bozorlar tomonidan 2021-2026-yillar davomida amalga oshirilgan ishlari, iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda belgilangan vazifalar ijrosining tahlili.
2. Boshqa masalalar.

Manzil: Payariq shahri Samarqand ko'chasi, 52-uy.

DA'VOLAR BO'LSA...

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevch notarial idorasida marhum Xamrayev Sharif Xolmurodovichga (2024-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevch notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mirzamov Abdunasimga (2025-yil 16-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida

marhum Ashurov Yurik Nuriddinovichga (2025-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Sharadjabov Erkin Umarovichga (2024-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Majitov Samatulloqga (2008-yil 19-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev

Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Zaynullayeva Minigulga (2015-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Madatov Rajab Shodmanovichga (2019-yil 15-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

"URGUT DEHQON BOZORI"

mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari diqqatiga!
"URGUT DEHQON BOZORI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining umumiy hisobot yig'ilishi 2026-yil 11-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

1. Jamiyatning 2025-yillik moliyaviy xo'jalik faoliyatini yakunlash yuzasidan jamiyat direktorining hisoboti.
2. Jamiyat bosh hisobchisining 2025-yilgi buxgalteriya, moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoboti.

3. 2026-yil uchun tuzilgan shtatlar jadvali, biznes rejasi hamda 2025-yil yakuni bo'yicha berilgan auditor tekshiruv xulosasini tasdiqlash.

4. 2025-yilda olingan jamiyat sof foydasini ta'sischilar o'rtasida taqsimlash, hisoblangan dividend miqdori va to'lovini amalga oshirish

tartibini tasdiqlash.

5. Jamiyat taftish komissiyasining 2025-yil yakuni bo'yicha hisoboti.

6. Jamiyat kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolarini saylash.

7. Davlat Aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasining 2026-yil 12-maydagi 1980-01/04-1-sonli xatida keltirib o'tilgan masalalar ijrosini ta'minlash masalasi ko'rib chiqish.

Manzillimiz: Urgut shahri Navoiy shohko'chasi.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum G'oziyev Shoxrux Sherali o'g'liga (2021-yil 22-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Islamova Kantingga (2020-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum

Vafayeva Larisa Valeryanovna (2025-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Azimov Muminjon Xaitovichga (2007-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 14-xona.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "ZAFAR MIXX" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312252684) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

XVI asr boshlarida tanazzulga yuz tutgan temuriylar davlati o'rniga Muhammad Shayboniy (1451-1510) boshliq shayboniylar sulolasi yuzaga keldi. Shayboniydolaridan bo'lgan Ubaydullaxon davrida shayboniylarning Turkistondagi mavqei yanada oshdi, adabiyot-san'at rivojlandi. O'ziga xos adabiy muhit shakllandi. Sulton Ubaydiyning Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondida saqlanayotgan "Masoil us-salat" - hikmat, ruboiy, tarje'band va noma janrlaridan iborat devoni filologiya fanlari nomzodi, dotsent Muhammad Hamzaxon Abdullayev tomonidan tabdill qilingan. Devon shoh va Sulton Ubaydiy faoliyati, uning she'riyati va taqdiri haqida.

Shohona satrlar sohibi

Adibning to'liq nomini tarixchilar Ubaydullaxon ibn Mahmud Sulton ibn Budog' Sulton ibn Abulxayrxon deb qayd etgan. Abulxayrxonning Budog' Sulton nomli o'g'li bo'lib, undan ikki farzand dunyoga kelgan. Birinchisi, Muhammad Shayboniyxon, ikkinchisi Mahmudxon. Dashti qipchoqda tug'ilgan Mahmudxon bobosi Abulxayrxon qo'lida tarbiya topgan. Ubaydullaxon ana shu Sultonning farzandi bo'lib, u 1487-yilda tavallud topgan. Ubaydullaxon tavallud topganda, otasi Mahmud Sulton tariqat piri va ustoz Ubaydullah Xoja Ahrori Valiydan farzandiga ismini qo'yib berishni iltimos qiladi. Xoja Mahmud Sultonga iltifot qilib, o'z ismini chaqaloqqa beradi. U o'z davrining eng yetuk piru murshidlaridan ta'lim va tarbiya oladi, arab va fors tillarini mukammal o'zlashtiradi. Tasavvuf bo'yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxon o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Aziz, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilganlar. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan shaxs) harbiy san'atdan saboq bergan.


"Nafos ul-ma'asir" asarida esa quyidagilarni o'qiyamiz: "Ilmi hadisida Ubaydullaxon hazrati Xoja Mulloyi Isfahoniyning shogirdidir va fiqhdan Mavlono Mahmud Azizning shogirdidir, Movarounnahrda ulamolarning mashhurlaridan turur. Ilmi qiroatni Mavlono Yormuhammad Qorining xizmatlarida o'tkazgan. Ul fanda (ta'jvid ilmi - A.A.) bir ta'lif ko'rgizdikim, tamomi qorilarning tilini xatodan saqlar erdi. Muammoni yaxshi bilur erdi".

Otasi Mahmud Sulton Qunduzga hokim bo'lib turgan (1504-1505) vaqtida vafot etadi. Natijada Shayboniyxon 18 yoshli Ubaydullaxonni Buxoroga hukmdor etib tayinlaydi. Uning taxtga chiqishini ko'pchilik, xususan, ilm-fan va adabiyot namoyandalari katta umid va xursandchilik bilan qarshi oladilar. Bu hol o'sha davr tarixchilari bo'lgan Mir Muhammad Munshiyning "Mu'iniddin Ubaydulla ibn Mahmud Shayboniy" hamda Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi: "U (Ubaydullaxon) barcha yaxshi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan podshoh erdi... U xizmat qilib turgan Buxoro xalqining yaxshi va foziligi, farovonligi jihatidan Hirotni va Husayn Mirzo zamonini eslatadi", deya Ubaydullaxonga katta baho bildirgan.

Ubaydullaxon amakisi bilan faqat harbiy yurishlarda emas, balki Shayboniyxon tomonidan o'tkazilgan ilmiy, adabiy yig'ilishlarda ham bevosita ishtirok etib, undan o'rnatilgan o'liming intilgan. Shu sababli ham uning davr sultonlari ichida fazilat va kamolotda yagonalik eslanganda Shayboniyxon nomi bilan Ubaydullaxonning nomi barobar tilga olingan.

Asarda qayd etilishicha, Shayboniyxonning saroyi faqatgina harbiy kengashlar o'tkaziladigan maskan bo'lmagan. U muntazam ravishda o'z davrining eng yirik ulamolari, huquqshunoslari va faylasuflarini to'plab, murakkab masalalar yuzasidan ilmiy munozaralar uyushtirgan.

Ubaydullaxon davriga kelib ilmiy majlislar faqat diniy-huquqiy mavzular bilan emas, balki falsafiy, adabiy va hatto tarix bo'yicha ham qizg'in muhokamalar bilan o'tgan. Ubaydullaxonning bu fazilati avvalo, Shayboniyxoniga xos an'analarni davom ettirish bo'lsa, ikkinchidan, harbiy qudratni yuksak madaniyat va ilm homiyligi bilan uyg'unlashtirgan o'liming hukmdor bo'lganini tasdiqlaydi. Shunga ko'ra, Shayboniyxon va Ubaydullaxonlar bizga nafaqat yengilmas sarkardalar, balki o'z davlatining ma'naviy-mafkuraviy poydevorini ham shaxsan o'zlar qurgan, ilm ahli bilan bahs-lashishdan cho'chimaydigan, qarorlarini aql va bilim tarozisiga solib ko'radigan teran fikrli davlat arboblari ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ularning o'zbek davlatchiligi tarixi, ma'rifati va madaniyat maydonidagi o'rni naqadar ko'p qirrali ekanligiga yana bir ishoradir.



Ubaydiy darveshtab shoh va shoir bo'lganligi uchun sultonlar suhbatini va xizmatiga ro'yxushlik bermaydigan zuhd va tariqat ahllari ham unga e'tiqod qo'yganlar. Mazkur manbada bayon etilishicha, Muhammad Amin Zohid nomli "Zuhd maqomida nodiri zamon" bo'lgan shayx va olim sultonlardan faqat Ubaydullaxonga e'tiqod bog'lagan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, XVII asrning birinchi yarmida Movarounnahr ilmiy-adabiy doirasining shakllanishi bevosita Ubaydullaxon nomi bilan bog'liq. Ubaydullaxonning o'zi Ubaydiy adabiy taxallusi bilan turkiy, forsiy va arab tillarida she'rlar yozgan. Uning she'rlar to'plami bizgacha yetib kelgan.

Devonni tahlil qilgan olim Muhammad Hamzaxon Abdullayev o'z qarashlarida Ubaydiy mumtoz adabiyotda mavjud barcha janrlarda, xususan, hikmat janrida alohida muhabbat bilan qalam tebratgan, shuningdek, devonidagi murakkab va noan'anaviy hikmatlar avvalida munojot va na't keltirilishi holati Ubaydiy ijodiy merosining qamrovli nechoq'lik keng ekanligini ko'rsatishini qayd etgan.

Hikmat mustaqil she'riy janr sifatida Qur'oni karim va hadislar asosida yuzaga kelganligi ilmiy manbalardan ma'lum. Qayd etish joizki, turkiy adabiyotda hikmatlari bilan mashhur bo'lgan adiblardan biri Ahmad Yassaviy bo'lsa, ikkinchisi, u kishining shogirdi Sulaymon Boqirg'oniydur. Muhammad Hamzaxon Abdullayev tomonidan nashr etilgan Ubaydiy hikmatlari mumtoz adabiyotimizda yana bir buyuk hikmat namoyandasi borligidan dalolat beradi.

Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan ta'sirlangan Ubaydiy o'z hikmatida:

*Ko'ch yeldek, ey rafiq, olam barcha ko'charo,
Ko'zni yumib ochquncha aziz umring o'taro...
Davlatiga tayonna, ganju molga inonma,
Ham barchag'a ishonma, bari sandin ketaro,
deb yozadi.*

Ubaydiy hikmatlari orasida o'zbek she'riyatida kam uchraydigan hodisa, ya'ni arabiy harflar orqali o'z fikrlarini ifodalash oliy bir maqomda amalga oshirilganligini ko'ramiz. Bu hol Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab ijodi uchrasa-da, ammo kam ishlatiladigan she'riy san'at turidir:

A - Alloh yodin qilur tuzluk bilan,
B - Bismilloh, zikr etolung, keling do'stlar,
T - Tavvobun, Hakim aytur, tavba qiling,
S - Savob fikrin munda eting, do'stlar...
Z - Zohiru botinining muvofiq qil,
I - Ishqu oshiqlikning sirrini bil.
H - G'ofur g'ufrohidin umid tutkil,
F - Faqr ahli maqomiga o'ting, do'stlar...

Adabiyotshunos olim Muhammad Hamzaxon Abdullayev tarixiy xotiralarni varaqlar ekan, Ubaydullaxonning zamondoshlari e'tirof etganidek, uning adolati olib borgan siyosati, bebaho adabiy merosidagi ilohiy ishq, Vatanga bo'lgan sadoqat, insoniylik, hikmat va jasurlik shartlari xususidagi o'g'itlari o'z davri uchun qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, ularning ahamiyati kelajagimiz bunyodkorlarining barkamol inson bo'lishiga yordam beradi, degan umiddamiz.

Akbar ASROROV,
Mardon BOLTAYEV,
Samarqand davlat universiteti dotsentlari.

To'y — xalqimizning eng ezgu va muqaddas qadriyatlaridan biri. Bu shunchaki ikki yoshning oila qurishi yoki dasturxon atrofida taomlanish emas, balki avlodlar davomiyligi, ijtimoiy birlik va quvonchni baham ko'rish marosimidir. Ammo keyingi yillarda «To'yg ko'p kelgani ma'qulmi yoki kim?» degan savol nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va psixologik bahslar markaziga aylandi. Ushbu mavzuni tahlil qilib, milliy mentalitetimiz va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida mulohaza yuritimiz.

AN'ANAVIY YONDASHUV

O'zbek jamiyatida to'y - bu «jamoa-viy tasdiq» marosimi. To'yg qancha ko'p odam kelsa, oilaning obro'yi shuncha baland, qarindosh-urug' va mahalla-ko'y bilan aloqasi shunchalik mustahkam, deb hisoblanadi.

Qolaversa, bizda to'y - bu qarz. Siz kimningdir to'yiga borgansiz, demak, u ham siznikiga kelishi kerak. Bu zanjir minglab odamlarni bir-biriga bog'lab turadi.

Biroq buning salbiy tomoni ham bor. Mehmon soni 500 kishidan oshganda, to'y egasi mehmonlarni kutib olish va kuzatish bilan ovora bo'lib, aslida kun qahramonlari bo'lgan kelin-kuyovni, ularning his-tuyg'ularini unutib qo'yadi. Ya'ni, to'y oilaviy shodiyonadan ko'ra, ko'proq «xizmat»ga aylanadi.

Bundan tashqari, to'yg ko'p odam aytish - katta xarajat. Agar o'rtacha 300-400 kishilik to'yni hisoblasak, bu oilaning yillab yiqqan mablag'ini bir kechada (3-4 soatda) sarflashini anglatadi. Dasturxonidagi ortiqcha tomlar, hashamga berilish va «odamlar nima deydi?» degan o'y iqtisodiy jihatdan zararli. Aniqliq aytganda, ko'p hollarda katta to'y qilish uchun qarz olinadi, bu esa yangi qurilgan oilaning dastlabki yillarini iqtisodiy qiyinchilikda o'tkazishiga sabab bo'ladi.

Lekin odatda o'y ko'p ko'rilmaydi: to'yg ko'p kelgani yaxshimi yoki kim kelgani?

XORIY TAJRIBASI

G'arb davlatlari va Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida to'y konsepsiyasi biznikidan keskin farq qiladi. Ularda asosiy urg'u songa emas, sifatga va shaxsiy xotiraga beriladi.

Bu davlatlarda to'y juda qat'iy protokol asosida o'tadi. Taklifnomalar faqat yaqinlarga yuboriladi va mehmon

To'yg ko'p kelgani yaxshimi yoki kim kelgani?

► Mulohaza



kelishini oldindan tasdiqlashi shart.

Yaponiya va Janubiy Koreyada ham to'yg taklifnoma olgan mehmon albatta, kelishini yoki kelmasligini bir necha hafta oldin tasdiqlaydi. Bu to'y egasiga ortiqcha taom isrofini oldini olishga imkon beradi. Bizda-chi? 300 kishilik joy qilib, 400 kishi kelishini yoki aksincha, yarmi kelmasligini kutib o'tiramiz.

Umuman, rivojlangan davlatlarda pulni 1000 kishini o'qatlantirishga emas, balki sifatli sayohatga, uy sotib olishga yoki o'zlar uchun unutilmas damlarga va madaniy dasturga sarflashga, ya'ni, ularda dabdaba o'rniga yuksak did va tartib birinchi o'ringa chiqadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Yevropada to'yg faqat eng yaqin qarindoshlar va haqiqiy do'stlar taklif qilinadi. Mehmonlar soni odatda 50 dan 100 kishigacha bo'ladi. Shu sabab kuyov va kelin har bir mehmon bilan alohida suhbatlashishga vaqt topadi.

Yevropa davlatlarida, aytaylik, Germaniya yoki Fransiya to'y — bu oilaviy bayram. U yerda 50-60 kishilik to'y normal holat hisoblanadi. Ularning mantig'i shunday: «Men eng baxtli kunimni faqat meni yaxshi ko'radiganlar bilan o'tkazishim kerak».

KIM UCHUN YOKI NEGA TO'Y QILAMIZ?

Hech o'y ko'rganmisiz, to'yg kelgan 500 kishining yarmi (ba'zan undan ham ko'pi) kelin-kuyovning kimligini yaxshi bilmaydi.

Ko'pchilik kuyov-kelinlar o'z to'yida «begona» bo'lib qoladi, - deydi jamoat faollaridan biri. - 500-600 kishilik to'yda kelin-kuyov mehmonlar uchun shunchaki «ekspozat» bo'ladi. Menimcha, to'yg kamroq, lekin eng yaqin, sizni chin dildan duo qiladigan insonlar kelgani ma'qul. Bu

nafaqat iqtisodiy tejamkorlik, balki ma'naviy xotirjamlik hamdir.

Yodingizda bo'lsa, 120-150 kishilik to'y eng ideal format, degan xulosaga kelingandi. Koronavirus pandemiyasi davrida jon qanchalik omonatligini har daqiqacha qilgan kunlarimizda bunga qat'iy amal ham qilgandik. Ammo vaqt o'tib, yana eski tutumlarga qaytmog'damiz.

Vaholanki, to'y bu hayotning boshlanishi, yakuni emas. To'ydan keyin ham hayot bor. Bas, shunday bo'lgach, rivojlangan davlatlar kabi «aqli tejamkorlik»ka o'tishimiz shart.

Biz rivojlangan davlatlarning tajribasidan to'yg «kelmasa xafa bo'ladi»larni emas, «kelsa xursand bo'ladi»larni aytishni o'rganishimiz zarur. Pulni bir martalik yeb-ichishga emas, balki yoshlarning kelajagi uchun poydevor qilib sarflash vaqti allaqachon kelgan. Yoshlar tushunib bormoqda, endi biz, kattalar ham anglashimiz shart: to'y - bu kim o'zarga musobaqa emas. Bu - ikki qalbnig birlashishi.

Yakuniy xulosa shundaki, to'yg kelgan odamlar soni sizning baxtingizni belgilamaydi. Agar 100 kishi kelib, ularning hammasi sizga chin dildan baxt tilasa, bu 1000 ta begonaning sovuq nigohidan ming chandon afzaldir.

Ulamolar hadislarga tayanib, to'yg qarindosh-urug'lar (silai rahm uchun), qo'shnilar (yaqinlik haqi bo'lgani uchun), taqvodor va ahli ilmlar (xonadonga fayz kirishi uchun), kambag'al va muhtojlar (duolari va barakasi uchun) taklif qilishni afzal deyishadi.

Afsuski, to'y qilyotganimizda ushbu nabaviy nasihatlarni yodimizdan chiqarib qo'yamiz. Tadbirimizga iloji boricha kazo-kazolarni, ko'proq odamni chaqirishga harakat qilamiz.

Yoqubjon MARQAYEV.

«OBQOLING, SUV TEKIN NARXDA»

Ijodiy guruhimiz bilan tasvirga olish ishlarini tugatib qaytish chog'imizda, yo'l bo'yida bir kishining «keb qoling, ob qoling qovunli, ananasli, olimli muzqaymoqlar suv tekin bo'ldi, tezroq oling, hozir tugaydi», deya odamlarni muzqaymoq savdosiga taklif qilayotganini eshitdim. Biz yo'limizda davom etar ekanmiz, o'yalanib qoldim. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlardagi bir do'konning reklamasida ham kiyim-kechaklarga «narxlar - suv tekin» deya yozilganini ko'rib hayron bo'lgandim. Nahotki, insonlar suvning har qatrasini qanchalik qimmat ekanini unutib qo'yishgan?

Suv - hayot manbai, tabiat insonga ato etgan eng bebahona ne'matlardan biri. Nafaqat inson, balki barcha tirik mavjudot yashashi uchun zarur bo'lgan bu ne'mat ko'pchilikka go'yo doimiy va cheklanmagan resursdek tuyuladi. Aslida esa bir tomchi suv ortida tabiatning uzoq jarayoni, inson mehnati va katta xarajatlar mujassam.

Bugungi kunda suv muammosi global masalaga aylanib bormoqda. Ayrim hududlarda odamlar bir necha chaqirim yo'l bosib, ichimlik suvini tashishga majbur. Qayerdadir esa suv bor, ammo u ifloslangan yoki ichishga yaroqsiz. Shu holatlarni o'yab ko'rsak, «suv tekin» degan iboraning xato ekanligini anglaymiz. Hayotiy misollar esa bunga yanada oydinlik kiritadi. Masalan, shahar sharoitida ba'zi odamlar jo'rmarkdan suvni behuda oqizib qo'yadi, tish yuvish yoki idish tozalash paytida uni o'chirishni o'yab ham ko'rmaydi. Bir qarashda bu arzimlas holdek ko'rinadi, ammo minglab odamlar shunday yo'l tutsa, qancha suv isrof bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas. Aksincha, qishloq joylarda suv tanqisligini boshdan kechirgan insonlar, ko'pni ko'rgan nuroniyalar suvning har qatrasini asrashga harakat qiladi. Qadimda ota-bobolarimiz «suvga supurma, suvga tupur-

ma», deb bejizga aytishmagan. Ular suvning haqiqiy qiymatini yaxshi bilgan, buni his qilgan.

Suv tekin degan qarash iqtisodiy emas, ma'naviy muammo hamdir. Chunki inson bir ne'matning qadrini bilmasa, uni asrashga ham intilmaydi. Qadrsizlangan ne'mat esa sekin-asta yo'qolib boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, suvga bo'lgan munosabatimiz kelajakka bo'lgan munosabatimizni belgilaydi.

Suvdan oqilona foydalanishni farzandlarimizga esini taniganidanoq o'rgatib borishimiz lozim. Doimo farzandlarimiz oshxonada idish-tovoqlarni yuvish chog'ida yoki yuz yuvish va tish tozalashda suvni oqizib qo'ymaslikni uqtiramiz. Bu tarbiyaning oddiy, ammo eng muhim jihatlardan biri, deb o'ylayman. Chunki bola aynan o'limda olgan odatlarini butun umri davomida saqlab qoladi.

Agar farzand suvni tejashni kichikligidan o'rgansa, u kelajakda ham tabiat ne'matlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi. Bu esa nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham katta foyda keltiradi.

Shuningdek, bolalarga suvning qadrini faqat gap bilan emas, amaliy misollar orqali ham tushuntirish zarur. Masalan, ochiq qoldirilgan jo'rmarkdan qancha suv behuda oqib ketishini ko'rsatish yoki suv tanqisligi bor hududlar haqida hikoya qilib berish orqali ular suvni «tekin» deb emas, balki asrab-avaylash kerak bo'lgan bebaho ne'mat sifatida qabul qila boshlaydilar.

Demak, har bir ota-ona o'z farzandiga bu borada ibrat bo'lishi zarur. Chunki tarbiya so'z bilan emas, amal bilan singdiriladi.

Umida MAMADALIYEVA,
jurnalist.

Gazetaning navbatdagi soni 2026-yil 2-iyun, seshanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 750 nusxada chop etildi. Buyurtma 212. Hajmi 2 bosma to'plam, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

